

Adabiyotlar

1. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturi. //http:www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
2. Абдуллаев С.И., Усмонова.Р. Қашқадарё ҳавзаси текислик қисми ландшафтларни табақалашуви. //Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 23-жилд. –Тошкент: 2003.
3. Abdullaev S.I., Nazarov M.G. Selitib landshaftlarning xususiyatlari. //O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 51-jild. – Toshkent: 2017.
4. Abulqosimov A.A., Abdurahmanova Y.X., Davronov K.Q. Zarafshon botig'i voha landshaftlari va geoeekologiyasi. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2017.
5. www.stat.uz.

REZYUME. Ushbu maqolada texnogen landshaftlardagi ekologik muammolar va ularni rekultivatsiya qilish masalalari hamda texnogen landshaftlar va ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются экологические проблемы в техногенных ландшафтах и вопросы их рекультивации и меры техногенных ландшафтов направленные на их предотвращение.

SUMMARY. This article covers ecological problems in man-made landscapes and issues of their recultivation measures of man-made landscapes aimed at their prevention.

QASHQADARYO VILOYATI SUV OMBORLARINING SUV ZAHIRALARI VA ULARDAN UNUMLI FOYDALANISH MASALALARI

N.M.Suyarqulov – *assistent o'qituvchi*

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: suv ombori, suv resurslari, suv tejamkorligi, iqtisodiy mexanizmlar, irrigatsiya.

Ключевые слова: водохранилище, водные ресурсы, водосбережение, экономические механизмы, ирригация.

Key words: reservoir, water resources, water saving, economic mechanisms, irrigation.

Kirish. Mamlakatimizda bugungi kunda 50 dan ortiq suv omborlaridan qishloq xo'jaligi va sanoatining turli tarmoqlaridan foydalanib kelinmoqda. Respublikamizning janubiy hududlari bo'lgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi suv omborlari ham mamlakatimiz irrigatsiya tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan xom-ashyo bazasi bo'lgan viloyatlardan hisoblanadi. Shu sababli bu mintaqani yer resurslarini suv bilan ta'minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Suv eng qimmat resursga aylanishi haqida ekspertlar XX asrda aytgan prognozlar bugun o'z isbotini topa boshladi. Negaki, 2030-yilga borib O'zbekistonda 7 milliard metr kub suv tanqisligi kuzatilishi va oqibatda mamlakat dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolishi ehtimoldan yiroq emas, albatta. Bu esa qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish, sug'orishning tejamkor usullarini qo'llashni jadallashtirishni taqozo etadi [1:6].

Asosiy qism. Davlatimiz tomonidan istiqlolning dastlabki yillaridayoq suv xo'jaligi rivojiga alohida e'tibor qaratmoqda. Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligida Suv resurslari balansi va suvni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi tashkil etildi. Bugungi kunda suv resurslari 800 ta yirik gidrotexnik inshoot, umumiy sig'imi 19,4 mlrd km³ bo'lgan 54 ta suv ombori yordamida boshqarilmoqda. O'zbekistonda ham XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab, turli kattalikdagi suv omborlari qurilib, ular, asosan daryo suvlarining suv rejimini boshqarish va energiya olish manbayi hisoblanadi. Ularning qurilishi va faoliyati bugungi kunda ham aholi ichimlik maqsadlarida bo'lib, yangi suv omborlari loyihalashtirishi va qurilishga olib kelmoqda.

Daryo suvidan unimlroq foydalanish maqsadida O'rta Osiyo davlatlari hududida keyingi yillarda bir qancha suv ombori loyihalandi, qurildi va bugungi kunda ham yangilari bunday ishlar regionda davom etib kelmoqda [2:47].

Viloyat hududida dastlabgi suv ombori Qashqadaryoning o'rta oqimida bunyod erila boshladi. U Chimqo'rg'on nomi bilan yurutilib, 1963-yilda to'liq quvvat bilan ishlay boshladi. Bu davrga kelib uning umumiy maydoni 44,4 km² maydonini egallaydi. Uning umumiy uzunligi 15 km bo'lib eng keng joyi 5,5 km, engchuqur joyi esa 30 m ni tashkil qiladi. Suv omborining to'la suv sig'imi 500 mln.m³, shundan 425 mln. m³ foydali suv sig'imi hisoblanadi. XX asrning 1967-yilidan 1987-yilgacha bo'lgan davrda Qashqadaryo viloyatining ichki suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida 12 ta yirik, o'rta va kichik hajmdagi suv omborlari barpo etildi [3:67].

Ma'lumki, namlik tanqis bo'lgan hududlarda tashkil

qilingan suv omborlar suvdan oqilona foydalanishda asosiy e'tibor irrigatsiya maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Biz quyidagi Qashqadaryo viloyatidagi 13 ta suv omborida 2017-yildan 2020-yilgacha bo'lgan vaqt davomida su suv omborida to'plangan suv miqdori va uning sarflanishi haqida tadqiqotlarni olib bordik (1-jadval).

Suv omborlari va ularning atrof – muhitga ta'sirini baholashni T.Shoto'rayev, P.Baratov, F.H.Hikmatov, Z.R.Sirliboyeva, D.P.Aytbayev, A.R.Rasulov, B.K.Soliyev, S.A.Azimboyev, I.Abdullayev va boshqalarning ishlari katta ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatining ichki suvlari, hususan,daryolar, ko'llar, suv omborlari faoliyatini inson xo'jalik faoliyati tasirida davriy o'zlashtirishni Qarshi Davlat Universiteti olimlari S.I.Abdullayev, A.Najimov, R.Usmonova tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin. Biroq, viloyat suv omborlari va ularning atrof-muhitiga tasiri muammosiga doir ko'pgina ilmiy ishlar bo'lishiga qaramay, suv omborlarining landshaft-ekologik holatini aniqlash va baholash bo'yicha to'liq kompleks tarzda keng qamrovli ilmiy ishlar majmuasi yaratilmagan [1:5].

Respublikamiz miqyosida yagona suv siyosatani olib boradigan Suv xo'jaligi vazirligi axborot xizmatining bergan ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizdagi suv omborlarida jami 11,21 milliard kub suv yig'ilgan. Bu 2021-yilga nisbatan solishtirganda 1 milliard 261 million kub metrga ko'pdir. Lekin hozirgi yig'ilgan suv o'rtacha uch yillikka qaraganda 839 million kub metrga kamroq [3:7]. Yog'ingarchiliklar davrida Surxondaryo viloyatidagi Janubiy Surxon, To'palang suv omborlari, Qashqadaryo viloyatidagi Chimqo'rg'on, Pachkamar, Qamashi suv omborlari, Samarqand viloyatidagi Kattaqo'rg'on va Oqdaryo suv omborlari, Jizzax viloyatidagi Jizzax suv ombori hamda Toshkent viloyatidagi Ohangaron, Toshkent suv omborlari ancha to'ldi, o'ziga yarasha zahira yaratildi, lekin yetarli emas. Bu yil yoz nisbatan issiq, qurg'oqchil kelishi taxmin qilinmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil vegetatsiya davrida suv resurslari hajmi ko'p yillik meyorga nisbatan Sirdaryo havzasida esa 10-15 foiz, Amudaryo havzasida 15-20 foiz kam bo'lishi kutilmoqda. Qolgan daryolarda ham suv hajmi bilan bog'liq bashorat qilinayotgan raqamlar barqaror emas. Bu bir tomondan, qishloq xo'jaligida mo'l hosil yetishirishda jiddiy sinov bo'lsa, boshqa tomondan, vegetatsiya davrida suvdan yanada maqsadli va tejamkorlik bilan foydalanish, umuman, bu boradagi ishlarni yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydiganchora-tadbirlar to'g'risida"gi

qarori esa kutilayotgan jiddiy sinovga puxta tayyorgarlik ko'rish, suv tejamlorligini oshirish hisobiga taqchillikning oldini olishga qaratilgan bilan ahamiyatli bo'ldi. Mazkur hujjat bilan joriy yozgi sug'orish mavsumida kutilayotgan suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlash hamda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Qarorga muvofiq, suv tejovchi texnologiyalar joriy qilishni rag'banlantirish tartibi saqlab qolingani holda, 2023-yil 1-apreldan boshlab ushbu tizimni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning yangi tartibi belgilandi. Shu bilan birga, 2024-yil 1-martga qadar Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi barcha suv bo'lish nuqtalari boshqaruvini raqamlashtirish va suvni foydalanuvchilarga yetkazib berish bo'yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshiriladi. 2025-yil 1-yanvardan boshlab esa barcha hududlarda "Suv hisobi" AT joriy qilinadi. Ya'ni qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishda ishlatilgan suvdan foydalanganlik uchun soliqlarni hisoblashda "Suv hisobi" AT orqali taqdim etilgan ma'lumotlar asosida soliq organlari tomonidan soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirib berish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Suvdan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari etib, mavjud suv resurslarini iste'molchilar orasida qat'iy taqsimlash suv tejovchi texnologiyalar joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, irrigatsiya tizimlarida suv yo'qotishlarni kamaytirish bilan birga, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish vazifasi ham belgilandi. Gap sohani rivojlantirish haqida borar ekan, bu borada Prezidentimizning 2021-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Chunki unda sohani raqamlashtirishga doir ustuvor vazifalar belgilangan. Qariyb 1 ming 700 nasos stansiyasida suvni onlayn rejimda monitoring qiluvchi hisoblagichlar, 18 ming 600 ga yaqin suv ombori va irrigatsiya tizimida "Aqlli suv" qurilmalari, 6 ming 200 ga yaqin meliorativ kuzatuv qudug'ida avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o'tkazuvchi "Dayver" qurilmalari o'rnatish hamda 60 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarini boshqarishni avtomatlashtirish shular jumlasidandir. Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda suv resurslarining boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha Qashqadaryo viloyatidagi ikkita kanalda Avstraliyaning "Rubicon Water" kompaniyasi texnologiyalari joriy etildi. Kezi kelganda ta'kidlash o'rinliki, "Rubicon Water" kompaniyasi texnologiyalari zamonaviy kompozit materiallardan iborat bo'lib, tashqi ta'sirga chidamli hamda o'lchov va boshqaruv qurilmalari 97 foiz aniqlikka ega hisoblanadi [5].

2007-yil sug'orish mavsumiga Respublikamiz bo'yicha 42681 mln m³ cheklangan suv miqdori (limit) ajratilgan. Yer usti va yer osti suv zahiramizni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot staretiyasi"ning 31-maqasadi: **"Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish"** bandida alohida ta'kidlab o'tiganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda lalmi yer maydonlarni o'zlashtirish maqsadida 7 ta yangi suv omborini qurilish ishlari boshlangan. Bundan tashqari Qashqadaryo viloyatida Guldara va Ayoqchisoy, Samarqand viloyatida Bulung'ur suv ombori barpo etiladi. Suv omborning umumiy sig'imi 45 million kub metrni tashkil qiladi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida davlat byudjedidan qariyb 1.7 trilion so'm (205 million dollarga yaqin) xalqaro moliya insitutlar hisobidan 84 million dollar miqdorida mablag' yo'naltiriladi. Kelgusi ikki yilda 1 million 200 ming gektar maydon suv ta'minoti barqarorlashtirilib, yiliga 1 million

700 ming kup metrga yaqin suv tejaladi, shuningdek 600 ming gektar yer o'zlashtirildi.

1-jadval. Qashqadaryo viloyatidagi suv omborlarida 2017-2020-yillarda yig'ilgan suv hajmi miqdori

T/r	Suv omborlarining nomi	Yig'ilgan suv hajmi mln.m ³			
		2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
1	Talimarjon	214,4	213,5	233,9	298,2
2	Chimqo'rg'on	13.2	23.5	106.3	37.4
3	Pachkamar	2	9	105.1	83.2
4	Hisorak	9.5	16.5	65.2	36.9
5	Qamashi	2.1	2.2	6	8.8
6	Dehqonobod	---	---	0.3	15.9
7	Langar	0.7	0.1	2.5	5.2
8	Qorabog'	0.7	0.2	1	3.2
9	Yangiqo'rg'on	0.8	0.4	1.8	1.9
10	No'g'ayli	0.4	0.3	0.4	1
11	Qizilsuv	0.4	0.1	1.1	3.8
12	Sho'robsoy	0.1	---	0.2	1.8
13	Qalgama	0.2	0.1	0.0	2,4
	Jami	244.3	265.8	523.8	499.7

Jadval ma'lumotlari Qashqadaryo viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Suv omborining 95% daryo yo'llarida qurilgan bo'lib, hudud atrofida shahar va qishloqlarga, ekin-dalalarga, turli ishlab chiqarish va sanoat korxonalariga xavf solib turadi. Masalan, Surxondaryo viloyati Surxondaryo daryosi yo'li to'sib qurilgan, suv sig'imi 800 mln.m³ dan ortiq bo'lgan "Janubiy Surxon" suv ombori doimiy ravishda Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Termiz shahri va tumanlari aholisi va atrof-muhitiga xafli hisoblanadi. Chunki hech kim kutmagan paytda tabiiy ofatlar antropogen omillar tufayli platformani suv urub ketishi xavfli bo'lishi mumkin [4:37].

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan ratsional foydalanishga oid huquqiy-me'yoriy asoslari (2020 -2021-yillar)

T/r	Huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asos solingan sana	Huquqiy-me'yoriy asoslari
1	2020-yil 10-iyul	"O'zbekiston Respublikasida suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni
2	2020-yil 11-dekabr	"Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori
3	2021-yil 24-fevral	"O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori
4	2021-yil 6-aprel	"O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori
5	2021-yil 6-aprel	"Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni

Izoh: jadvaldagi ma'lumotlar N.M.Suyarqulov tomonidan tuzilgan.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan

strategiyasi, umuman olganda, ushbu hujjatlar konsepsiya va strategiyada belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar suvni tejash samaradorligining yildan-yilga yaxshilanib borishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Adabiyotlar

1. Tilovov T., Tilovova N. Hayot ekologiyasi. Qarshi: "Nasaf" NMIU, 2022. 292 b.
2. Shoto'rayev T., Baratov P. O'rta Osiyoning sun'iy ko'llari. – T.: "Fan", 1972.
3. Husanxo'jayev Z.X. Gidrotexnika inshootlari. –T.: "O'qituvchi", 1978. – 432 b.
4. Shuls V.L., Masharipov R. "O'rta Osiyo gidrografiyasi" – T.: "O'qituvchi", 1969.
5. "O'zbekiston ovozi" №20, 2022-yil 18 may, (32.714).

REZYUME. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati suv omborlarining suv resurslari va ulardan kelajakda foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada viloyat suv omborlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari va suv tejamkorligi masalalari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются водные ресурсы водохранилищ Кашкадарьинской области и их дальнейшее использование. Также в статье говорится об экономических механизмах использования региональных водохранилищ и вопросах водосбережения.

SUMMARY. This article covers water resources of Kashkadarya region reservoirs and their future use. The article also talks about economic mechanisms of using regional water reservoirs and issues of water saving.

O'ZBEKISTONDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI GEOGRAFIK JIHATDAN TADQIQ ETISH TAJRIBALARI

K.K.Uzakbaev – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: aholi, xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi, hududiy tashkil etish, ijtimoiy sohalari, tibbiy xizmat ko'rsatish, ta'lim tizimi, ijtimoiy geografik tadqiqotlar.

Ключевые слова: население, география обслуживания, территориальная организация, социальные сферы, медицинское обслуживание, система образования, социально-географические исследования.

Key words: population, geography of service, territorial organization, social spheres, medical care, education system, socio-geographical research.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq aholining turmush darajasini oshirishga, unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni tubdan isloh qilish, yangi boshqaruv shaklining bozor iqtisodiyoti talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu borada Respublika hukumati tomonidan ijtimoiy sohalari rivojiga oid maxsus dastur, ko'rsatma, qaror va farmonlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilayotgani ijobiy natijalar bermoqda.

Ta'kidlash joizki, har qanday iqtisodiy rivojlanish pirovard maqsadda ijtimoiy manfaatlarni nazarda tutadi. Bizning mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat ham, Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu masalalarga qaratilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonda o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohatlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamli ishlar ilgari hech qachon bo'lmagan" [1:199].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilova "IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" bo'limi 37-70 maqsadlarining barchasida respublikamiz hududlarida ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [2].

O'zbekiston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografik jihatdan tadqiq etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, ularning mazmun va mohiyati, hududiylik va davriylik xususiyatlarini o'rganish ishning maqsadi hisoblanadi. Maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi tadqiqot vazifalarini bajarish ko'zda tutilgan: 1) Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografik jihatdan tadqiq etishning dolzarbligini aniqlash; 2) Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi bo'yicha himoya qilingan dissertatsiyalar, yirik monografiyalarni tahlil qilish va

tizimlashtirish; 3) mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning hududiylik va davriylik xususiyatlarini aniqlash.

Respublikamizda ham ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir qator yo'nalishlari tashkil topdi va rivojlanib kelmoqda. Bu borada O'zbekistonda dastlab aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya masalalarini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda ijtimoiy sohalari, aniqrog'i aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasida ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar asosan ikkita yo'nalishda evolyutsion tarzda rivojlanib borgan. Birinchi yo'nalish iqtisodiy geografik tadqiqotlar tabiiy sharoitga (tabiat komponentlariga) qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan baho berishdan boshlanib, hozirda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va mintaqaviy siyosatgacha bo'lgan bir qancha bosqichlardan iborat [3:4].

Ijtimoiy geografik tadqiqotlar sanalgan ikkinchi yo'nalishda dastlab alohida hududlar aholisi, tabiiy harakati, mehnat resurslari kabi ilmiy ishlarga ustuvorlik qaratilgan bo'lsa, aholiga xizmat ko'rsatish, rekreatsiya va turizm geografiyasiga ham e'tibor berilmoqda. E'tirof etish joizki, iqtisodiy geografik tadqiqotlarning deyarli barcha bosqichlari doirasida alohida, maxsus ilmiy ishlar olib borilgan, ammo ijtimoiy geografik tadqiqotlarning aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi yo'nalishida esa hali o'z yechimini kutayotganlari anchagina.

Avvalom bor shuni ta'kidlash kerakki, yirik shaklda, dissertatsiya, monografiya tarzida aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari geografiyasi O'zbekistonda 1990-yillardan boshlab shakllandi. Undan oldin maqola tarzida yoki O'zbekiston SSR Atlasida xaritalar yaratilgan, biroq bevosita alohida maqsad va vazifalar belgilangan holda, butun O'zbekiston hududi, muayyan bir mintaq yoki iqtisodiy tuman hududi aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi, hududiy tashkil etilishi jihatidan tizimli ravishda chuqur o'rganilmagan.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi yetakchi olimlaridan biri bo'lgan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga tizimli e'tibor qaratgan g.f.d., professor A.S.Soliyevning faol harakatlari bilan shakllangan. A.Soliyev ilmiy maktabi doirasida dastlabki shakllangan